Shunday qilib, qo‘llanilayotgan yondashuv avtobiografik bayonning badiiy tuzilmasini har tomonlama tahlil qilishni ta’minlaydi, uning mazmuniy va estetik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jahon adabiyotshunoslarining turli xil yondashuvlari va tadqiqlari avtobiografik asarlarning xilma-xil ranglarini ochib berdi. Zamonaviy adabiyotshunoslik zargarlari ham hanuz yuqoridagi ilmiy tushunchalarning ilmiy asoslarini tadqiq etish bilan band. Keyingi avlod adabiyotshunoslik vakillarining vazifalari ham avtobigrafik asarlarning mazmun xususiyatlarini kengroq ochib berish bo‘lib qolaveradi. Chunki har bir ilmiy mavzu ulkan ummondirki, uning kashf etilmagan qo‘riqlari bisyor. Avtobiografik asarlarning gnoseologik tadqiqi ham har doim o‘zining bir muncha uzoq va tahlilga molik tomonlari bilan bizni o‘ziga tortaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Зарецкий Ю.П. История субъективности и история автобиографии, важные обновления. Неприкосновенный запас. 2012, № 3 (83), с. 218–232; 228 с.

(2). Левицкий Л.А. Мемуары. Литературный энциклопедический словарь. Под общ. ред. В.М.Кожевникова, П.А.Николаева. М., “Сов. энциклопедия”, 1987, с. 216.

(3). Нюбина Л.М. Воспоминание и текст. Смоленск, СГПУ, 2000, с. 13.

(4). Елизаветина Г.Г. «Последняя грань в области романа»: Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. “Вопросы литературы”, 1982, № 10, с. 148, 154–159.

(5). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. … канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

(6). Полонский Я.П. Старина и моѐ детство. Проза. М., 1988, с. 272.

(7). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. …канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

Xo‘janova Uringul Smayilovna (O‘zbekiston, Toshkent, UzDJTU; hojanovauringul01@gmail.com)

MAJOZIY O‘XSHATISHNING FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Tavsiya qilinayotgan maqolaning maqsadi – majoziy o‘xshatish lingvistik hodisa sifatida o‘rganishda kognitiv yondashuvdan foydalanish tajribasi va uning funksiyalari hamda ularning kognitiv jarayonlar (kontseptsiyalash va tasniflash). Asosiy e’tibor turli fanlarni birlashtirgan muhim muammolarga hamda turli sohalarda kognitiv yondashuvni rivojlantirishning*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy o‘xshatish, o‘xshatish agenti, o‘xshatish referenti, ritorik figura, tasviriy va baholash funksiyalar, satirik funksiya, aforistik funksiya.*

Ходжанова Урингуль Смайиловна (Узбекистан, Ташкент, УзГУМЯ; hojanovauringul01@gmail.com)

ФУНКЦИИ ОБРАЗНОГО СРАВНЕНИЯ

Аннотация. *Цель предлагаемой статьи – обобщить на основе краткого обзора опыт использования когнитивного подхода к изучению языковых явлений в качестве образного сравнения и его функции и их взаимосвязи с когнитивными процессами (прежде всего, концептуализацией и категоризацией) в отечественной и мировой науке, дать общее представление о современном состоянии. В центре внимания находятся ключевые проблемы, решение которых объединяет разные дисциплины, а также современные тенденции развития когнитивного подхода в разных научных областях, фундаментальных и прикладных исследованиях.*

Ключевые слова: *логическая аналогия, имитационный агент, референт аналогии, риторическая фигура, образная и оценочная функции, сатирическая функция, аформистическая функция.*

Khojanova Uringul Smayilovna (Uzbekistan, Tashkent, UzSWLU; hojanovauringul01@gmail.com)

FUNCTIONS OF IMAGINATIVE COMPARISON

Annotation. *The target of the proposed article – to summarize on the basis of a brief review of the experience of using the cognitive approach to the study of linguistic phenomena as simile and its functions and their relationships with cognitive processes (first of all, conceptualization and categorization) in domestic and world science. The focus is on key problems, the solution of which unites different disciplines, as well as current trends in the development of cognitive approach in different scientific fields, fundamental and applied research.*

Key words: *logical analogy, imitation agent, analogy referent, rhetorical figure, figurative and evaluative functions, satirical function, aphoristic function.*

Kirish. Gumanitar fanlar taraqqiyotidagi hozirgi bosqichni xarakterlash uchun, eng avvalo, tadqiqotchilarning insonning kognitiv faoliyatiga va uning natijalariga e’tibor qaratish lozim. Tilshunoslikda o‘x-

shatish mantiqiy kategoriya va tasviriy vosita sifatida ajralib turadi. O‘xshatish tushunchasi tabiatan juda ko‘p qirralidir, u ham mantiqiy jihatdan va tarkibiy jihatdan (qiyosiy semantikada), ham ifoda jihatdan (semantik tuzilishi) jihatidan o‘rganiladi. Tuzilishi nuqtayi nazaridan o‘xshatish lingvistik birlik sifatida boshqa til hodisalaridan o‘ziga xos konstruktiv xususiyatlari bilan farq qiladi. Turli tadqiqotchilar o‘z ishlarida qiyosiy konstitutsiyalarining nomlarini turlicha nomlaydilar, masalan “prototip, tasvir, modul”, “referent, agent, asos-manba”, “obyekt, subyekt, xususiyat”, “obyekt, tasvir, bog‘lovchi xususiyat” va boshqa. Ushbu ishda quyidagi nomlardan foydalaniladi qiyosiy konstruksiyaning tarkibiy elementlari: o‘xshatish obyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish uchun asos. Ushbu atamalarni lug‘at talqinidan olingan. Shunday qilib, “obyekt” tushunchasi lug‘atda S.I.Ojegova lug‘atida “obyekt – bizdan tashqarida va mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan bizning ongimizdagi narsa, biron bir faoliyatga yo‘naltirilgan hodisa, obyektdir” [123;354-b.]. “Etalon” deganda “biror narsaning o‘lchov namunasi” [744-b.], “asos–bu hodisalar, tushunchalar taqsimlanadigan muhim belgi” deb tasvirlanadi [372-b.]. Taqqoslash obyekti uchun sinonim nom sifatida, shuningdek, “birinchi taqqoslash” atamasi, etalon uchun esa “ikkinchi taqqoslash” atamasi ham qo‘llaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Majoziy o‘xshatish har bir san’at asarining rassom tomonidan voqelikni obrazli bilish va aks ettirish natijasida dunyoga kelgan ijod mahsulidir. Badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida ko‘plab tilshunoslarning e’tiborini tortgan. Jahon tilshunosligida V.F.Gumboldt, F.de Sossyur, A.A.Potebnya, E.B.Benevist, I.B.Sapir, B.L.Uorf, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, G.O.Vinokur, K.R. Yakobson, V.V.Vinogradova, I.R.Galperin, N.M.Shanskiy, O.I.Moskalskaya, A.N.Vasilyeva, A.A.Potebnya, L.Y.Maksimov, A.I.Efimov, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Lotman, Lukin, Shanskiy. L.A. Novikov kabi olimlar tomonidan olib borilgan badiiy matn borasidagi tadqiqotlarga asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz obyekti majoziy o‘shatish bo‘lib, kognitiv modellashtirish metodidan foydalangan holda badiiy matnning “chuqur mazmuni”ni yoritish uchun qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. O‘xshatishning yangilik omiliga ko‘ra, an’anaviy va individual o‘xshatishlarga ajraladi. Mantiqda o‘xshatish teng tushunchalar o‘rtasida bolib, hissiy idrokdan ko‘ra ko‘proq mantiqiy aqlga tayanadi, shuning uchun ma’noning ravshanligi bilan ajralib turadi. Mantiqiy o‘xshatishni tasvirlash uchun ingliz yozuvchisi Jeffrey Ashfordning “The anger of Fear” asariga murojaat qilaylik:

They had planned for everything but rain and its consequences and now the water, ***like liquid ice****, rolled down their hunched and shivering backs* (Jeffrey Ashford. The anger of Fear (101-b.).

Berilgan misolda suv-suyuqlik suyuq muz bilan o‘xshatilgan bo‘lib, teng tushunchalar, ya’ni shakl-shamoili bir-biriga yaqin tushuncha bilan tasvirlangan. Ushbu misol mantiqiy o‘xshatishni o‘z ichiga oladi, chunki bu erda bir hil obyektlar ularning muhim xususiyatlariga ko‘ra taqqoslanadi, o‘xshatish faqat o‘xshashlikni o‘rnatish bilan cheklanadi va qo‘shimcha assotsiatsiyalarni keltirib chiqarmaydi. Majoziy o‘xshatish, ma’lum qoidaga binoan, turli xil tabiat obyektlari va hodisalarini taqqoslash orqali yararatiladi. Bunday holatlarda o‘xshatish bo‘rttiriladi va hissiy baholash ko‘pincha ratsional bahodan ustun turadi. Majoziy o‘xshatish ehtimollik, imkoniyat, taxminiylik semantikasini yaratadi. Bunda faktlarni yetkazishga emas, balki ularga bo‘lgan munosabatni ifodalashga qaratilgan va uning qiymati g‘oyani eng ifodali va tejamkor tarzda yetkazishdir.

Wheat profits soared, but growing wheat took time. And the miners were ‘holdin’ up their milk ***like some stubborn cow****”, as the old-timers put it* (J.Masters Bacher. When morning comes again. 67-bet).

Yuqoridagi misolda o‘xshatish agenti jonli predmet (*stubborn cow)*, aktiv fe’l holdin’ up– to cause to be late or to cause to happen at a later time (Longman Dictionary of English Language) ma’nosi asar qahramoni – Efreym fermerlarni bug‘doyning yuqori narxda ushlab turilishlarini ‘buzog‘iga sut saqlab turuvchi qaysar sigir’ga o‘xshatadi.

Majoziy o‘xshatish voqelikning bir sinfiga tegishli, aksincha, har xil sinfga tegishli obyektlarni taqqoslashga ham asoslanishi mumkin. N.D.Arutyunova obrazini yaratishda turli sinflarga mansub obyektlarni o‘xshatish obraz hosil qilishda keng imkoniyat yaratadi yordam beradi, agar obyektning ixtisoslashuvi uning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish bilan birga bo‘lsa, turli funksional subklasslar vakillarini o‘zaro taqqoslash majoziy o‘xshatish bo‘ladi deb hisoblaydi [Arutyunova. 1999:281]. Ushbu fikrning isboti sifatida biz J.Masters Bacherning “When morning comes again” romandan parcha keltiramiz:

Efraim and Roberta were talking nonstop about handpresses, newsprint, printer’s ink, and the temproray building for the weekly publication which would become a daily in no time, they predicted, spouting their lines ***like well trained actors*** *on stage* (J.Masters Bacher. “When morning comes again”. 209-b.).

O‘xshatish referenti va inson: A – Efraim and Roberta, B – well trained actors, aktiv fe’l spouting - to speak a lot, in a way that is boring or annoying for other people (Longman Dictionary of English Lan-

guage) ma'nosi qahramonlarning qo'l mehnati bilan yaratilgan gazeta, bosma gazeta, tipografiya siyohi va kunlik gazeta bosmaxonasi haqida to'xtamay bashorat qilayotgan va gaplashayotgan lahzalarni yaqqol ochib berishda muallif o'xshatish uslubidan foydalangan va o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'ota olgan.

O'xshatish elemenetlarining bog'lanishiga ko'ra doimiy-turg'un (ana'naviy) va muallif o'xshatishlarga bo'linadi. Turg'un o'xshatish frazeologik kombinatsiyalar tarkibida bo'ladi.

"Turg'un o'xshatishlar ma'lum bir til jamoasining har bir a'zosiga ma'lum va tanish bo'lgan va an'anaga ko'ra, avloddan avlodga o'tadigan" tasviriy vositalarga aytiladi (Chernyshova. 1970;50-b.). Tasvirlari ushbu tilda so'zlashuvchilar tomonidan tan olinadi va referent va agent o'rtasidagi aloqa avtomatik ravishda o'rnatiladi. Bunday taqqoslashlar faqat genetik jihatdan ritorik figuradir, ammo uning barqaror lug'at ma'nosida frazeologik birlik vazifasini bajaradi (Lotman. 1999;55-b.). Ular kundalik nutqda ham, badiiy nasrda ham intensivlashtiruvchi sifatida keng qo'llaniladi. Turg'un o'xshatishga misol keltiramiz:

You can't feed me that one. She and me are ***like Romeo and Juliet*** *and there isn't a balcony can hold me back* (J.Ashford. "The anger of Fear". 10-b.).

Muallif asar qahramonining kuchli muhabbati va ularning sevgisiga hech narsa to'siq bo'lolmasligini ifodalashda turg'un o'xshatishdan foydalanadi: *like Romeo and Juliet – constantly falling in love and professing his feelings in a poetic manner, much like the character from Shakespeare's Romeo and Juliet* (Oxford Dictionary of English Idioms).

Turg'un o'xshatishlar individual – muallif o'xshatishlar bilan taqqoslanadi. Muallif dunyo haqida subyektiv mualliflik qarashlarini aks ettiradi, "umumiy qabul qilingan va individual tasvirlarni farqlash qiyinchiliklar,, avvalambor, o'tish davri hodisalarining mavjudligi bilan bog'liq" (Kovtun. 1978–57-b.). Muallif o'z asarida nutqning erkin elementlardan foydalanadi va ba'zan turg'un o'xshatishlardan ham foydalanadi: *Quilp, who was* ***as strong as a lion****, easily kept his until the boy was tugging at it with his utmost power, when he suddenly let it go and sent him reeling backward, so that he fell violently upon his head.* (Ch.Dickens. The old curiosity shop. 59-b.).

She produced confidences and estrangements, **like a ghost** rumoured, perhaps seen (Elizabeth Bowen. Friends and relations. 70-b.).

Ushbu misollarda muallif turg'un o'xshatishni qahramonlarning ko'rinishi, holatini tasvirlashda foydalangan.

Just tell me what's the trouble, then. I'm always out to help the coppers. Ever Ready, ***like the batteries*** (J.Ashford. The anger of Fear. 114-b.).

Asar qahramonining fuqarolik pozitsiyasini tasvirlashda avtor xotirasidagi kutilmagan o'xshatishdan foydalanadi. Obrazga yorqin effect–jilo beradi. Referentning ruhiy holatinin batareyalarga o'xshatadi.

O'xshatishning stilistik ta'rifini I.R.Galperin quyidagicha ta'riflaydi: "Stilistikada o'xshatilayotgan narsa va hodisalar turli xususiyati jihatidan turli sinflarga tegishli bo'ladi, ammo ba'zi bir xususiyatlari o'xshatishga ma'nba bo'ladi" [I.Galperin. 1958;167-b.].

Quyidagi "A - f – B - C"- o'xshatishning tuzilishi mazmunni turli yo'llar bilan uzatish formulasidir. "f" komponentining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab, to'liq yoki qisqartirilgan bo'lishi mumkin. Qisqartirilgan taqqoslashlar murakkab tuzilma bo'lib, o'quvchi yetishmayotgan komponentni kontekstdan o'zi mustaqil ravishda aniqlashga to'g'ri keladi. O'xsahtishning qisqartirilgan usuliga misol keltiramiz:

A f B

Fell, standing in ***as night duty officer****, was for once looking flustered* (J.Ashford. The anger of Fear 112-b.).

Asar qahramoni o'zining qo'rquvdagi holatini sergak yoki qo'rqsada ko'rsatmaslikka harakat qilgan kechki navbatchi ofitserning holati bilan o'xshatgan. Natijada turli xil assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin: qo'rquv yoki hadik. *"looking flustered* –qattiq hayajonlangan ma'nosi o'xshatishni yakunlaydi.

Quyida o'xshatishning barcha stilistik elementlari mavjud misolni ko'rib o'tamiz. O'xshatish referenti ot so'z turkumi bilan ifodalangan – *booking and general area*, o'xhsatish agenti atributiv ot bilan ifodalangan – *car park*, o'xshatish asosi – *litter-strewn, as……as* bog'lovchisi bilan bog'langan:

A as C as B

The booking and general area was large and almost as litter-strewn as the car-park; there were newsagent and florist stalls, shut and sguttered, a bar and a snack-bar, shut and in darkness, and a row of vending machines, several of which had 'Out of order' signs.

O'xshatish tarkibiy qismlarining tartibini o'zgartirish muayyan o'zgarishlarga olib keladi: ushbu odatiy munosabatlarning o'zgarishi dekodlashda keskinlikni kuchayishiga olib keladi va shunga mos ra-

vishda yanada kuchli ekspressiv effektlarni yaratadi" [V.L.Naer. 2000;5-b.]. O'xshatishning stilistik modifikatsiyalarini batafsil ko'rib chiqamiz:

A like B as C

Her thoughts fled by ***like water, as*** *elusive, spinning their own shadow* (Elizabeth Bowen. Friends and relations.115-b.).

Asar qahramonining anglab bo'lmas tarqoq fikrlar oqimini suv – ot so'z turkumi bilan, suvning xususiyatlarini spinning, elusive – sifat bilan ifodalaydi.

C, as if A, like B

Wordlessly, *she resisted, even when he whispered "darling" over and over* ***as if the words were torn like ragged little scraps*** *from a bolt of cloth* (J.Masters. Bacher. When morning comes again. 220-b.).

Wordlessly – words were torn like ragged little scraps o'xshatish asosining prepozitiv joylashuviga misol bo'ladi va so'zlarning hayajonli – titroqqa soluvchi ta'sirini ta'kidlash uchun ishlatilgan.

E.Bovenning "Mrs. Dalloway", o'xshatishning boshqa tarkibiy imkoniyatlarini namoyish etadi:

A, C [3] like B[3]

She was ***hidden like a corncrake, distant like a cuckoo, close like a nesting swallow under the*** **roof**. (E.Bowen. Friends and relations.110-b.).

Berilgan misolda muallif birvarakayiga 3 ta asos va 3 ta agentdan atipik (noodatiy) tarzda foydalangan. Ushbu belgi tinish belgilarini qo'yish orqali parchaga ma'lum bir ritm beradi. O'xshatishshning stilistik usuli badiiy matnda turli funksiyalarni bajaradi. Ular orasida tasviriy va baholash funksiyalari, satirik funksiyasi, aforistik funksiyasi. O'xshatishni qabul qilishning ko'rsatilgan funksiyalarini misollar bilan ko'rib o'tamiz:

Tasvirlovchi funksiyasi. *Mansion-in-the-Wild must be preserved with its rich, mellow wood, colored rugs glowing against polished floors, and its multipaned windows –* ***like compound eyes*** *– keeping watch day and night* (J.M.Bacher. When morning comes again. 33-b.).

Muallif saroyni havfsiz murakkab tuzilmaga egaligini tasvirlash niyatida *multipaned windows* ko'p oynali derazalarni *compound eyes* murakkab tuzilgan ko'zlarga o'xshatadi.

Baholash funksiyasi. *'You look* ***like a million pounds****', he said* (J.Ashford. The anger of Fear. 16-b.). O'xshatishning stilistik usuli muallifning tasvirlangan belgiga asar personajiga ijobiy munosabatini ko'rsatadi.

Satirik effekt yaratish funksiyasi. *A turf of black hair stood on top the perfect head* ***like an exclamation mark*** *as if the wide-open dark eyes were dismayed at the world around her* (J.Bacher. When morning comes again. 114-b.).

J.Batcher romanidagi asar qahramonining satirik tasviri o'xshatish elementlarida aksini topadi. Vaqt va makonda o'z o'rnini aniqlay olmagan nima bo'layotganini tushunmay karaxt bo'lib qolgan holatini undov belgisi-*exclamation mark* bilan izohlaydi.

Aforistik funksiyasi. *'I expect it will be difficult for you – perhaps even* ***as difficult as our life*** *together in the empty quarter*' (J.Ashford. The anger of Fear. 20-b.).

Ushbu misolda J.Ashford asar qahramonlarining tushkun holatini jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'laydi. Ularning turg'un turmush tarzining o'zgarishiga olib keladigan vaziyatni qisqa va aforistik shaklda ifodalaydi. Ko'rib turganingizdek, o'xshatish, bir qarashda, oddiy bo'lib ko'ringani bilan murakkab va keng qamrovli stilistik usuldir.

Xulosa va takliflar. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, mantiqiy va majoziy o'xshatishni farqlash ba'zan qiyin vazifadir. O'xshatilayotgan obyektlar va hodisalarning heterojenlik (turli xil toifaga mansub) mezoni o'xshatish tasvirini aniqlashda har doim ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Shu munosabat bilan, shuni esda tutish kerakki, "o'xshashlik to'g'risidagi hukm taassurotlar asosida chaqiriladi, shuning uchun o'xshashlik aldamchi bo'lishi mumkin". O'xshashlik vaqtinchalik hamda konstant-doimiy bo'lishi mumkin" [Arutyunova. 1999;275-b.]. Maqolada o'xshatishning semantik maydoni tahlil qilinib, lingvistik xususiyatlari yoritib berildi. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligidagi semantik maydon nazariyasi borasidagi izlanishlar va ularning ilmiy natijalari haqida izlanishlar va nazariy fikrlar ko'paysa, kelajakda kognitiv tilshunoslik rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Исабеков С.Я. Картина мира во фразеологических единицах неродственных языков. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации и перевода. Алмааты, 2001.

(2). Spears R.A. Phrases and Idioms. A practical Guide to American English Expressions. NTC Publishing Group, 1998, p. 305.
(3). https://slovarozhegova.ru/ozhegov.php

Abdullayeva Guliston Sultanovna (tadqiqotchi)

MUTRIB XONAXAROBIY SHE'RIYATI VA JADIDCHILIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan Mutrib Xonaxarobiyning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik ruhida yozilgan she'rlari tahlilga tortiladi. Shoirning yangicha o'qitish tizimi, hurriyat, ozodlik masalalari, yoshlar ma'rifati mavzusidagi she'rlarining g'oyaviy yo'nalishi, tasvir ko'lami, badiiyati qisqacha tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Mutrib Xonaxarobiy, Xorazm, adabiy muhit, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, maktab, ta'lim, maorif, yoshlar, hurriyat, mavzu, g'oya, badiiyat, mahorat.*

ПОЭЗИЯ МУТРИБА ХОНАХАРОБИ И ДЖАДИЗМ

Аннотация. *В данной статье анализируется поэзия Мутриба Хонахароби, жившего в Хорезме в конце XIX – начале XX века, в частности его стихи, проникнутые идеями просвещения и прогресса. Исследуется художественность, идейная направленность стихотворений о новой системе обучения, независимости, вопросах свободолюбия и просвещении молодежи.*

Ключевые слова*: Мутриб Хонахаробий, Хорезм, литературная среда, просветительство, прогрессивность, школа, обучение, просвещение, молодежь, свобода, тема, идея, художественность, мастерство.*

MUTRIB KHANAKHARABI'S POETRY AND JADIDISM

Annotation. *This article analyzes the poems written in the spirit of enlightenment and progressivism by Mutrib Khanakharabi, who lived in Khorezm in the late 19th – early 20th centuries. The poet's ideological direction, scope of images, and artistry of his poems on the topics of new education system, issues of freedom, freedom, and youth enlightenment are briefly explored.*

Key words: *Mutrib Khanakharabi, the literary environment of Khorezm, enlightenment, progress, school, education, youth, freedom, theme, idea, artistry, skill.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. Bu adabiy muhitda bir qancha iste'dod egalari kamolga yetdiki, ularning iqtidor ko'lami turlicha edi. Ular nafaqat mumtoz adabiy an'analar ta'sirida ijod qildilar, balki yangi zamon voqeligidan kelib chiqib ham yetuk asarlar yaratdilar. Ana shunday ijodkorlardan biri Mutrib Xonaxarobiy edi. U XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy sharoitdan kelib chiqib ijod qilar ekan, bir qancha ijtimoiy, ma'rifiy muammolarni qalamga oldi. Ta'lim tizimidagi muammolar xususida, yangicha taraqqiyotga intilmayotgan xalq ahvoli haqida qayg'urdi. Erk, ozodlik, hurriyat, yoshlar masalalari xususida she'rlar yozdi. Bu asarda davr muammolari hozirjavoblik bilan yoritilgani bilan ham dolzarblik kasb etadi. Mazkur she'rlarni yangicha mezonlar, istiqlol mafkurasi asosida o'rganishning ilmiy ahamiyati benihoya kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mutrib Xonaxarobiy ijodi borasida, uning shoirlik iqtidori xususida Ahmad Tabibiy, Hasanmurod Laffasiy, Po'latjon Qayyumiy, Bobojon Tarroh Xodim tazkiralarida ma'lumot beriladi [1;136–140-b.]. Adabiyotshunos M.Pirnazarov Mutrib Xonaxarobiy hayot yo'lini [2], matnshunos S.Madrimova shoir adabiy merosiga doir qo'lyozma va toshbosma manbalarni tadqiq etgan [3]. Tilshunos A.Allaberganova shoir asarlarining lingvopoetikasini o'rgangan [4]. Shuningdek, O.Sharofiddinov, N.Mallayev, M.Pirnazarov maqolalarida ham Mutrib hayoti, ijodi xususida muxtasar ma'lumotlar keltiriladi [5;28-b.]. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarda shoirning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik mavzusidagi she'rlari tahliliga keng o'rin berilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu kichik tadqiqot ishi davomida qiyosiy-tarixiy, struktural, germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mutrib Xonaxarobiy (1860–1923) ijodida yangicha ma'rifatparvarlik targ'ibiga keng o'rin ajratilgan. Uning bu mavzudagi she'rlarida yangi davr nafasi sezilib turadi. G'oya ifodasida da'vat ruhi yetakchi, fikrni aniq-lo'nda bayon qilish ustuvor. Ilmning nihoyasi farovonlik, xorlik ko'rmaslik ekanligi o'quvchiga oson tushunilsin uchun, shuningdek, XX asr boshlaridagi umumiy da'vatkorlikka mos ravishda qalamga olingan. Bu shoirning, yetishib kelayotgan ma'rifatparvarning, jadidning yangiliklardan boxabarligidan darak beradi:

...Ey xaloyiq, bo'lsa farzanding agar,
Ber muallimg'a oni qilmay hazar.